

BANK OMONAT SHARTNOMASI №

(“Foizlar oldindan” muddatli omonat hisobvarag‘ini ochish yuzasidan)

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bank nomidan (keyingi o‘rinlarda – Bank), 20__ -yil “_____” dagi ____-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Xalq bankining _____ bank xizmatlari markazi rahbari _____ bir tomondan va ikkinchi tomondan fuqaro _____ (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi) ushbu omonat shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Asosiy atama va tushunchalar

Xalq bankining “Xazna” mobil ilovasi – mobil texnologiyalar va WEB ilovalari asosida bank tomonidan buyurtma qilingan va boshqariladigan, bank operatsiyalarini onlayn tarzda amalga oshirish, hisobvaraqlar holati to‘g‘risida ma’lumot olish va boshqa ma’lumotlarni olish uchun mo‘ljallangan, bank mobil ilovasining (*keyingi o‘rinlarda Ilova deb yuritiladi*) funksional imkoniyatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallagan maxsus dasturiy ta’minot;

Omonatchi – O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet-el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan jismoniy shaxs;

bank kartasi – O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan emissiya qilingan, bankining “Xazna” mobil ilovasida ro‘yxatga olingan va bank operatsiyalarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, onlayn rejimida ishlaydigan bank to‘lov kartasi;

elektron hamyon – jismoniy shaxslarning masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimi orqali boshqariladigan mablag‘lari;

shaxsga doir ma’lumotlar – Mijoz tomonidan Ilovadan foydalanish uchun Bankka taqdim etiladigan, ma’lum bir shaxsga tegishli bo‘lgan va uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma’lumotlar majmui;

shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish – shaxsga doir ma’lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, qo‘llash, taqdim etish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilishga doir bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish;

axborot xavfsizligi — axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati;

autentifikasiya — foydalanuvchi, dastur, qurilma yoki ma’lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlash tartib-taomili;

biometrik identifikasiya — bitta jismoniy shaxs bilan bog‘langan biometrik identifikatorlarni (yuz tuzilishi, barmoq izlari, ovoz, ko‘z rangdor pardasi) topish va qaytarish uchun biometrik ro‘yxatga olishlar ma’lumotlar bazasidan qidirish jarayoni;

frod holatlari — axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik va (yoki) o‘g‘rilik holatlari;

hisobga olish yozuvi (akkaunt) — foydalanuvchining axborot tizimidagi shaxsiy qaydnomasi. U foydalanuvchiga tizimdagi ma’lum resurslar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi;

identifikator — ob’ektni tavsiflovchi va uni boshqa ko‘plab ob’ektlar orasida ajratib ko‘rsatish imkonini beruvchi kod yoki ramziy nom;

identifikasiya — foydalanuvchilarning shaxsini aniqlash maqsadida ularga identifikator (noyob nomlar) tayinlash yoki tayinlangan identifikatorlarni (noyob nomlar) identifikatorlar ro‘yxati bilan solishtirish;

kiberxavfsizlik — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati;

uchinchi shaxslar – Bank, uning mijozi (vakili) va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tashqari boshqa barcha shaxslar;

bank tariflari – Bank tomonidan tasdiqlangan va tegishli amaliyotni bajarish (xizmat ko‘rsatish) vaqtida amalda bo‘lgan, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun Mijoz tomonidan to‘lanadigan komissiya miqdori. Tariflar ilovaning rasmiy veb www.xb.uz saytiga joylashtiriladi va muntazam ravishda yangilab boriladi;

OTP kod (One-Time Password) — bu foydalanuvchining shaxsini identifikatsiya qilish yoki autentifikatsiyadan o‘tkazish jarayonida qo‘llaniladigan, faqat bitta autentifikatsiya sessiyasi yoki amaliy operatsiya uchun mo‘ljallangan, avtomatik tarzda yaratiladigan bir martalik tasdiqlash kodi;

sessiya — foydalanuvchining tizim, dastur yoki veb-sayt bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan vaqt oralig‘i.

PUSh-xabar — foydalanuvchining mobil ilovasiga avtomatik ravishda to‘g‘ridan to‘g‘ri yuboriladigan xabar.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bank, omonatchiga milliy valyutadagi _____ so‘m miqdoridagi pul mablag‘larini depozit hisobvarag‘iga bank kassalari orqali joylashtirish, shuningdek, omonatni “Xazna” mobil ilovasi orqali boshqarish imkoniyatini beradi.

Bank omonatni qabul qilish hamda omonat shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarda va tartibda uni hisoblangan foizlari bilan birga to‘liq hajmda qaytarish majburiyatini oladi.

3. Omonatning shart va qoidalari

3.1. Omonat summasini hisobga olish uchun Omonatchiga 20606 _____ muddatli depozit hisobvarag‘i ochiladi.

Hisobvaraqlar Omonatchi Bankka kelganida, Omonatchining arizasi asosida, u O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatganida ochiladi.

3.2. Omonatning saqlanish muddati – 12 (o‘n ikki) oy.

3.3. Omonatning foiz stavkasi – yillik 14 (o‘n to‘rt) foiz.

3.4. Omonatga foizlar hisoblash tartibi – omonat mablag‘i kirim qilingan kuni foizlar oldindan to‘lab beriladi. Bunda, Omonatchi omonatni rasmiylashtirgan kunda unga yillik foizlar hisoblanadi.

3.5. Omonatning minimal miqdori - 10 000 000 (o‘n million) so‘mni tashkil etadi va maksimal miqdori cheklanmagan.

3.6. Omonatni qisman yechib olish mavjud emas.

3.7. Omonat mablag‘lari saqlanish muddatidan oldin olingan hollarda, to‘lab berilgan foizlar omonatning asosiy summasidan yechib olinadi.

3.11. Omonatga hisoblangan foizlar kapitalizatsiya qilinmaydi.

3.12. Omonatchi shartnoma muddati tugaganda omonat mablag‘larini bank kassalari yoki “Xazna” mobil ilovasi orqali elektron hamyoniga o‘tkazib olishi mumkin.

4. Taraflarning huquq va majburiyatlari

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. Ushbu shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilishini Omonatchidan talab qilish;

4.1.2. Omonatchi tomonidan Bankka noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilgan hollarda, Omonatchiga xizmat ko‘rsatishni rad etish;

4.1.3. Texnik sabablarga ko‘ra yoki tizimdan foydalanishga to‘sqinlik qiladigan boshqa holatlar tufayli tizimdan foydalanishni noma’lum muddatga bir tomonlama to‘xtatib turish. Bunda, Omonatchini nosozliklar va ularni bartaraf etish muddati to‘g‘risida bankning rasmiy sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlarda yoki tizimlarda xabarlar joylashtiradi;

4.1.4. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda Omonatchining bank siri hisoblangan ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etish;

4.1.5. Omonatchining bank siriga oid bo‘lgan, shuningdek shaxsiy va/yoki aloqa ma’lumotlari bilan bog‘liq har qanday ma’lumotlarni avtomatlashtirish vositalari bilan yoki ularsiz qayta ishlashga, shu jumladan, shartnoma tuzilishi va bajarilishi munosabati bilan bankka taqdim etilgan shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, tarqatish (shu jumladan, bank sheriklariga o‘tkazish), shaxssizlashtirish, blokirovka qilish, yo‘q qilish hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish;

4.1.6. Omonatchi yoki uning amaliyotlari sanksiya ta’sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo‘lgan hollarda, amaliyotlarni o‘rganish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘rash, amaliyot miqdorini chegaralash, amaliyotni cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan amaliyotlar Omonatchining anketasidagi profiliga nomuvofiq bo‘lgan hollarda xizmat ko‘rsatishni rad etish va ushbu shartnomni bir tomonlama bekor qilish;

4.1.7. Amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan amaliyotlar oqibatida Bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanish xavfi mavjud bo‘lgan taqdirda bank Omonatchiga hisobvaraqlar ochishni va amaliyotlarni amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

4.1.8 Bank, omonatchi yoki uning vakillari topshirig‘iga binoan bankning omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan bank operatsiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun taraflarning qo‘shimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiga asosan vositachilik haqi undirish;

4.1.9 Omonatchi tomonidan omonat muddati tugagandan so‘ng, omonat mablag‘larini qaytarib berishni talab etmagan yoki boshqa omonat turiga rasmiylashtirilmagan hollarda, omonat mablag‘lariga nisbatan foizlar hisoblab borishi to‘xtatiladi.

4.1.10 Vakolatli davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchining e’tirozlaridan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko‘rish (pul mablag‘larini xatlash, pul mablag‘larini akseptsiz hisobdan chiqarish, hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish va boshqalar);

4.1.11 O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisobvaraqlar bo‘yicha amaliyotlarni to‘xtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish;

5.2. Bankning majburiyatlari:

5.2.1. Omonat shartlarini elektron ko‘rinishda bankning “Xazna” ilovasi va www.xb.uz saytida aks ettirish;

5.2.2. mazkur shartnomada belgilangan shartlar asosida omonat mablag‘iga foizlarni hisoblab borish va to‘lash hamda Omonatchining talabiga ko‘ra omonatdagi pul mablag‘larini bank kassalari yoki “Xazna” ilovasi orqali naqd pulsiz qaytarilishini ta’minlash;

5.2.3. Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni sir saqlanishini ta’minlash. Amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan xolatlar bundan mustasno;

5.2.4. Omonat operatsiyalarini real vaqt rejimida “Xazna” ilovasida kuzatib borish imkonini joriy etish;

5.2.5. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta’minlash va frod holatlariga tezkor javob qaytarish maqsadida Omonatchini quyidagi holatlar yuz berganda SMS-xabarnoma va

mobil ilovada PUSH-xabar orqali zudlik bilan xabardor qilishi hamda jarayonni to'xtatishi va foydalanuvchining qo'shimcha tasdiqdan o'tishini ta'minlash:

Omonatchi nomidan yangi qurilma orqali tizimga kirishga urinishda;

Omonatchi nomidan omonat joylashtirish hamda omonatdan pul mablag'larini yechib olish bo'yicha so'rov yuborilganda;

tizimda frod alomatlari qayd etilganda (qisqa vaqt ichida bir nechta operatsiyalarning amalga oshirilishi, shubhali IP-manzillardan kirish, noodatiy geolokatsiyadan harakatlar va boshqalar).

5.2.6. Omonatlar bilan bog'liq operatsiyalarni tasdiqlash uchun yuboriladigan OTP kodlar Omonatchining ro'yxatdan (autenfikatsiyadan) o'tgan, OTP kod kelib tushgan qurilmasida amal qilishi va boshqa qurilmalarda qo'llanishini oldini olish;

5.2.7. Bank, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-1031-sonli Qonunida o'rnatilgan tartibda Omonatchining bankdagi omonatini himoya qilinishini kafolatlaydi.

5.3. Omonatchining huquqlari:

5.3.1. Mazkur shartnoma shartlari doirasida omonat mablag'lari hisobidan daromad olish va ushbu mablag'larni erkin tasarruf etish;

5.3.2. Bank tomonidan omonatchiga taklif etilgan omonat turlarining qoidalari bilan tanishib chiqish;

5.3.2. Bankda omonat hisobvaraqlari ochish;

5.3.3 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatni shaxsan tasarruf etish yoki mazkur huquqni notarial tasdiqlangan ishonchnoma orqali uchinchi shaxslarga taqdim etish;

5.3.4 Omonatning saqlash muddati tugaganda, ushbu shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq, omonat hisobvaraqdan pul mablag'larini unga hisoblangan foizlar bilan birga to'liq hajmda olish;

5.3.5 Omonatchi Bank ofisida rasmiylashtirilgan omonatlarini Xazna mobil ilovasi orqali ham boshqarish;

5.3.6 O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatchiga berilgan boshqa imkoniyatlardan foydalanish.

5.4. Omonatchining majburiyatlari:

5.4.1. Omonat shartlari bilan to'liq tanishib chiqish;

5.4.2. Omonat hisobvarag'i orqali amaliyotlarni amalga oshirish jarayonida dastur ilovadagi uzilishlar yoki texnik nosozliklar haqida zudlik bilan Bankni xabardor qilish;

5.4.3. Ilovaga kirish uchun berilgan "Login", "Parol" va "PIN" kodni boshqa shaxslarga oshkor qilmaslik;

5.4.4. Ilova yoki internet tarmog'i orqali omonat bilan bog'liq bo'lgan bank amaliyotlarini boshqa shaxslar ishtirokisiz yoki kuzatuviziz amalga oshirish;

5.4.5. Bank tomonidan yuboriladigan xabarlarni, jumladan "Xazna" mobil ilovasidagi bildirishnomalar, SMS va PUSH-xabarlarni diqqat bilan to'liq o'rganib chiqishi va muntazam ravishda kuzatib borish;

5.4.6. Bank tomonidan omonatchiga firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risida ma'lumot berilgandan keyin har qanday to'lov amaliyotlarini tasdiqlashda ehtiyodkor bo'lish;

5.4.7. Qurilmasi yo'qolganligi yoki uchinchi shaxslar tomonidan qurilmani boshqarishga nazorat o'rnatilganligini aniqlagan paytdan boshlab zudlik bilan biroq 1 (bir) kundan kechiktirmay bankni xabardor qilish;

5.4.8. Omonatchi o'z roziligisiz amalga oshirilgan operatsiya faktini aniqlagan paytdan boshlab 1 (bir) kun ichida bu haqda bankni xabardor qilish;

5.4.9. Bankga o'zining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi shart, ushbu ma'lumotlar bankning omonatchi bilan bog'lanishi uchun zarur, agar ushbu ma'lumotlar o'zgarsa, omonatchi o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida bu haqda Bankga xabar berish;

5.4.10. Bankning so'roviga ko'ra omonatchi operatsiyani o'zi mustaqil ravishda amalga oshirganligi yoki uni omonatchining topshirig'i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Shuningdek, omonatchi firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishi lozim.

5.4.11. Bankning axborot tizimlari, mobil ilovalari va veb-resurslarida foydalanuvchilar uchun joylashtirilgan axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda frod holatlarining oldini olish bo'yicha asosiy qoidalar bilan tanishish va yangiliklarni muntazam ravishda kuzatib borish;

Shuningdek, Bankning axborot tizimlari, mobil ilovalar va veb-resurslarda foydalanuvchilar uchun joylashtirilgan frodning turlari, eng ko'p uchraydigan sxema va usullari hamda ulardan himoyalaniish bo'yicha amaliy tavsiyalar, frod holatlari to'g'risidagi ma'lumot va xabarlarini kuzatib borish;

5.4.12. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlariga hamda Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Axborotni, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga rozilik shartlari"ga muvofiq omonatchi o'ziga taalluqli bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga va ulardan foydalanishga roziligini taqdim etish;

5.4.13. Omonatchi, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda firibgarlik (frod) holatlarining oldini olish maqsadida, ushbu shartnomani tasdiqlash bilan bir vaqtning o'zida, Bankning rasmiy veb saytida joylashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 24-apreldagi 13/1-son qarori bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida 2024-yil 21-mayda 3513 ro'yxat raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish choralarini ko'rish to'g'risida"gi hamda Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 23-dekabrda 35/14-son qarori bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida 2026-yil 21-yanvarda 3759 ro'yxat raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Kredit va to'lov tashkilotlari, to'lov tizimi operatorlari tomonidan jismoniy shaxslarga masofadan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda frod holatlarining oldini olish bo'yicha minimal talablar to'g'risida"gi nizomlarda belgilangan shartlar bilan to'liq tanishib chiqishi lozim.

6. Taraflarning javobgarligi

6.1. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

6.2. Omonatchi tomonidan omonat "qoida"lari talablariga va ushbu shartnomada belgilangan shartlarga rioya qilmaslik oqibatida yetkazilgan zarar uchun Bank javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.3. Omonatchi hisobvaraqa kirim qilingan mablag'larni qonuniyligiga shaxsan javobgardir.

7. Fors-major holatlari

7.1. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

8. Nizolarni hal qilish.

8.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan barcha kelishmovchilik va nizolarni muzokara yo'li bilan hal etish choralarini ko'radilar.

8.2. O'zaro kelishuvga erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan mazkur shartnoma rasmiylashtirilgan va bank amaliyotlari amalga oshirilgan hududda joylashgan Fuqarolik ishlari bo'yicha sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

9. Korrupsiyaga qarshi shartlar

9.1. Mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta'sir o'tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydi, to'lashni taklif etmaydi va bunday to'lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

9.2. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

9.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag'batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag'lari, sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchi Mazkur hujjat elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. www.xb.uz veb saytiga o'ting va elektron hujjat to'g'risida ma'lumotlarni oling. tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

9.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubha tug'ilganda, tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og'zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi. Shuningdek, ushbu tomondan ma'lum muddat ichida tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnoma bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

10. Boshqa shartlar

10.1. Ushbu shartnoma bank va omonatchi tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va omonat summasi hamda unga hisoblangan daromadlar omonatchiga to'liq qaytarib berilgan kunga qadar amal qiladi.

10.2. Shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

10.3. Shartnomani imzolash orqali Omonatchi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-1031-sonli Qonuni, bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda amaldagi tariflari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi, hamda ularga qat'iy rioya etadi.

10.4. Ushbu shartnoma ikki nusxada – Tomonlarning har biri uchun bittadan nusxada tuzildi. Shartnomaning har bir nusxasi teng yuridik kuchga ega.

10.5. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Omonatchi Bankda qabul qilingan jismoniy shaxslarning omonat amaliyotlarini amalga oshirish va mazkur Shartnoma shartlariga rozilik bildiradi.

10.6. Shartnoma Omonatchi tomonidan familiyasi, ismi, sharifini o'z qo'li bilan kiritish orqali imzolanishi kerak.

11. Tomonlarning manzil va rekvizitlari

Банк БХМ номи: БХМ манзили: МФО: ИНН: БХМ раҳбари: Масъул ходим:	Омонатчи Омонатчи номи: ***** Манзили: Паспорт маълумотлари: Тел:
	Шартнома шартлари, омонат қоидалари ва банкнинг амалдаги тарифлари билан танишдим
	Имзо: *****